

FARG'ONA VODIYSI NOYOB MONOKOTLARINING FITOGEOGRAFIYASI

Akhmadjonova M Sh

*Namangan Davlat universiteti magistri
axmadjonovamuazzam0110@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi Farg'ona vodiysidagi noyob bir pallalilarning (Iridaceae, Liliaceae, Amaryllidaceae, Asphodelaceae) botanik-geografik o'rni va undagi turlar soni shuningdek, kimlar tomonidan o'rganilganligi bilan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Tarqalishi, Farg'ona vodiysi, botanik-geografik hududlar, ekologiya, turlar.*

Abstract: *This thesis highlights the botanical and geographical position of rare monocotyledons (Iridaceae, Liliaceae, Amaryllidaceae, Asphodelaceae) in the Fergana Valley, the number of species found there, and the researchers who have studied them*

Key words: *Distribution, Fergana valley, botanical-geographical regions, ecology, species.*

Аннотация: *В данной тезисной работе освещено ботанико-географическое положение редких однодольных растений (Iridaceae, Liliaceae, Amaryllidaceae, Asphodelaceae) Ферганской долины, количество их видов, а также исследователи, изучавшие их.*

Ключевые слова: *Распространение, Ферганская долина, ботанико-географические районы, экология, виды.*

KIRISH

Farg'ona vodiysi respublikaning eng muhim va go'zal joylaridan biri bo'lib, u o'zining noyob o'simlik va hayvonot dunyosi, iqlimi, unumdor tuprog'i va boshqalar bilan ajralib turadi.

Vodiyning iqlimi keskin kontinental. Farg'ona vodiysi bir qancha tog' tizmalari (Qurama, Chatqol va Farg'ona) bilan o'ralgan bo'lib, bu Iridaceae, Liliaceae, Amaryllidaceae va Asphodelaceae oilalariga mansub turlar uchun optimal sharoit yaratadi. Bundan tashqari, ba'zi qurg'oqchil hududlarda ham yuqorida tilga olingan oilalarga mansub turlar o'sadi.

Masalan, Pop-Chust (Chap) adirlari buning yorqin misoli bo'lib, u yerda *T.scharipovii* va *T.intermedia* turlari topilgan va tavsiflangan. Farg'ona vodiysining joylashgan geografik o'rni, ayniqsa uni o'rab turgan Tiyonshon va Pomir-Oloy tog'larini barcha rayonlashtirish sxemalarida markaziy o'rinlardan birini egallagan.


M.M. Arifxanova (1965) tadqiqotlarida Farg'ona vodiysi botanik-geografik jihatdan dastlab to'liq tahlil qilingan. Natijada 9 ta (Qoramozor, G'arbiy Chotqol, Sharqiy Chotqol, Turkiston, G'arbiy Oloy, Sharqiy Oloy, Markaziy tekislik, G'arbiy Farg'ona, Sharqiy Farg'ona) rayonlarga bo'lingan.

Keyinchalik K.Sh. Tojibayev va boshq. (2016) tomonidan to'plangan ma'lumotlarning chuqur tahlillariga asoslanib O'zbekiston hududi botanik geografik jihatdan rayonlashtirish amalga oshirildi.

Ushbu botanik-geografik rayonlashtirish sxemasiga ko'ra Farg'ona vodiysi Tog'lio'rtaosiyo (G'arbiy Tiyonshon, Farg'ona va Farg'ona-Oloy okruglari tarkibidagi beshta rayonlar) va Turon (Markaziy Farg'ona okrugi tarkibidagi ikkita rayonlar) provinsiyalari tarkibiga kiradi.

Mazkur tadqiqot ishida Farg'ona vodiysi dendroflorasining botanik-geografik rayonlar bo'yicha tarqalishi mazkur rayonlashtirish sxemasiga ko'ra amalga oshirildi (2.3.1-rasm). Manbalardagi tahlil natijalarga ko'ra, ba'zi noyob bir urug'pallali 15 turi Tog'lio'rtaosiyo provinsiyasiga to'g'ri keldi.

Tog'lio'rtaosiyo provinsiyasi o'z navbatida G'arbiy Tiyonshon, Farg'ona, Farg'ona-Oloy okruglariga bo'lingan (2.3.1-rasm). Turon provinsiyasida esa noyob bir urug'pallalilar uchramasligi aniqlandi.



2.3.1-rasm. Farg'ona vodiysi O'zbekiston hududining botanik-geografik rayonlari.

Turlarning xilma-xilligi bo'yicha yetakchi o'rinni G'arbiy Tiyonshon okrugi egallaydi hamda noyob bir urug'pallalilarning 10 (55.56%) turini qamrab oladi. Keyingi o'rinlarni 5 (27.78%) tur bilan Farg'ona-Oloy okrugi va 3 (16.67%) tur bilan Farg'ona okrugi egallaydi. G'arbiy Tiyonshon va Farg'ona-Oloy okruglarini noyob bir urug'pallali turlariga boy ekanligini mazkur okruglarda balandlik diapozoni yuqori ekanligi va egallagan maydonlarning asosiy qismi Farg'ona vodiysi hududiga to'g'ri kelishi bilan izohlanadi. Farg'ona okrugida turlar soni ancha kam, ushbu okrugning turlar xilma-xilligi umumiy noyob bir urug'pallalilarning 16.67% (3) tashkil etadi (2.3.1- jadval). Bu holat yuqoridagi ikki okrugga nisbatan umumiy maydonining kichikligi va noyob bir urug'pallali turlar tarqalishi uchun qulay bo'lgan balandlik diapazonining kichikligi bilan izohlanadi. Fitogeografik tahlil noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni muhofaza

qilishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda Qizil kitobga kiritilgan 15 ta o'simlik turlari gullar va urug'larning yig'ilishi, tarqalgan hududlarining ekspluatatsiyasi va ochiq yaylovlarda chorva mollari boqish tufayli 57- 58 yuqori darajada himoya choralarini talab qiladi. Hozirda yuqorida tilga olingan turlarni muhofaza qilish uchun maxsus muhofaza strategiyasini ishlab chiqish taklif etilmoqda. Bundan tashqari, ularning aksariyati hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Botanikabog'ida yetishtirilmoqda.

2.3.1–jadval

Farg'ona vodiysi ba'zi noyob bir urug'pallali turlarining O'zbekiston botanik-geografik rayonlashtirish sxemasi bo'yicha tarqalishi

I Tog'lio'rtaosiyo provinsiyasi				
Tiyonshon tog' tizmasi				
№	Botanik–geografik okruglar	T/S	Botanik–geografik rayonlar va undagi turlar soni	Turlar nomi
1	I-1 G'arbiy-Tiyonshon	10	I-1-c Arashon (6)	Fritillaria eduardii Tulipa vvedenskyi Tulipa dasystemon Tulipa kaufmanniana Tulipa dubia Tulipa greigii
			I-1-d Qurama (2)	Tulipa greigii Iris orchioides
			I-1-e Chorkesar (7)	Iris orchioides Tulipa vvedenskyi Tulipa dasystemon Tulipa dubia Tulipa scharipovii Tulipa intermedia Eremurus robustus
2	I-2 Farg'ona	3	I-2-a Janubiy-Chotqol (3)	Iris winkleri Tulipa ferganica Allium viridiflorum
r-Oloy tog' tizmasi				
3	I-3 Farg'ona-Oloy	5	I-3-a G'arbiy-Oloy (1)	Fritillaria eduardii
			I-3-b Sharqiy-Oloy (5)	Fritillaria eduardii Tulipa ferganica Tulipa dasystemon Allium alaicum Allium backhousianum

Xulosa qilib aytganda, vodiyni shimoliy tomondan G'arbiy Tyanshan tizmasi va janubdan Oloy tizmasi o'rab turadi. Farg'ona vodiysining tabiati va florasini o'ziga xos bo'lib, hududning endemizm darajasi ham yuqori. Farg'ona vodiysida tarqalgan ayrim noyob bir urug'pallalilarni fitogeografiyasi bo'yicha tahlil amalga oshirilganda, G'arbiy Tiyonshon okrugi 10 tur bilan yetakchilik qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dekhkonov D., Tojibaev K. Sh., Makhmudjanov D., Nu-Ree Na, Baasanmunkh S., Yusupov Z., Choi H. J., JANG Ch. Gee. Mapping and analyzing the distribution of the species in the genus *Tulipa* (Liliaceae) in the Ferghana Valley of Central Asia // Korean J. Pl. Taxon. 2021. 51(3):-P. 181–191.

2. Dekhkonov D., Tojibaev K., Yusupov Z., Makhmudjanov D., Asatulloev T. Morphology of tulips (*Tulipa*, Liliaceae) in its primary centre of diversity // Plant diversity of Central Asia. 2022. 1.-P. 52–70.

3. Asatulloev T., Dekhkonov D., Tojibaev K. What determines the distribution of *Tulipa* species in Uzbekistan? // Plant Diversity of Central Asia, 2022. 2.-P. 128–137.

4. Pratov U., Khasanov F. O. The Red Data Book of the Republic of Uzbekistan. Tashkent. 2015.-349 pp.

5. Haydarov Q., Hojimatov Q. H. “O`zbekiston o`simliklari”.– Toshkent: O`qituvchi, 1992. 245b.

6. Хошимов ХР, Батошов АР, Ёқубжонов ОР, Фарғона водийси шимолий адир флораси турларини тўр тизимли хариталаш. НамДУ илмий ахборотномаси-2022-йил 12-сон б. 129-136